

№ 4-sonli Bayonnomasidan ko'chirma

Nukus shahri

Kengash raisi: M.S. Utepbergenov - harbiy-akademik litsey direktori.

Qatnashganlar: Q.A. Djumaniyazov – o'quv bo'limi boshlig'i.
Harbiy-akademik litsey xodimlari va o'qituvchilar.

Kengash kotibi: O'quv bo'limi uslubchisi M. Jumabayev.

KUN TARTIBI:

5. Har xil masalalar.

b) harbiy-akademik litseyda faoliyat yuritayotgan ayrim pedagog xodimlarni mukofotlash haqida.

Tinglandi:

Ilmiy-pedagogik kengashni harbiy-akademik litsey direktori, ilmiy-pedagogik kengash raisi M. Utepbergenov kirish so'zi bilan ochib berdi va olib bordi. Bugungi ilmiy-pedagogik kengash kun tartibidagi har xil masalalar tarkibidagi harbiy-akademik litseyda o'quvchi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mehnat qilayotgan, o'zining pedagogik tajribasi va bilimi orqali hurmatga sazovor bo'lib kelayotgan ayrim pedagog xodimlarni, xususan rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Seytnazarova Gulnara Aytbaevna va tarix fani o'qituvchisi Dauletmuratov Rashit Begimbaevich kabilar 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining **"Qo'l soati"** bilan, tarix fani o'qituvchisi Ajiniyazov Baxadir Po'latovich esa O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri **"Faxriy yorlig'i"** bilan mukofotlanganini ta'kidlab o'tdi.

Ilmiy-pedagogik kengash yuqoridagi kun tartibida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy-pedagogik kengashda o'qilgan bayonotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin va qoniqarli deb topilsin.

2. Harbiy-akademik litseyning quyidagi fan o'qituvchilari 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining **"Qo'l soati"** va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri **"Faxriy yorlig'i"** bilan mukofotlansin:

- rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Seytnazarova Gulnara Aytbaevna va tarix fani o'qituvchisi Dauletmuratov Rashit Begimbaevich kabilar **"Qo'l soati"** bilan;

- tarix fani o'qituvchisi Ajiniyazov Baxadir Po'latovich **"Faxriy yorliq"** bilan mukofotlansin.



to'g'ri

M. Jumabayev

M. Jumabayev